

О`ЗBEKISTONDA REVMAТИЗМ KASALLIKLARI VA ULARNI OLDINI OLISH

G`affarov Komronbek Ulug`bek o`g`li

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash

ishi yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Qalandarov Qobil

Annotatsiya: Ushbu maqolada revmatizm kasalligi, uning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari va davolash usullari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Revmatizm – bu asosan yurak, bo`g`imlar va boshqa a'zolarining biriktiruvchi to`qimasini zararlaydigan yallig`lanishli kasallik bo`lib, ko`pincha streptokokk infeksiyasi natijasida yuzaga keladi. Maqolada kasallikning asosiy belgilari, tashxislash usullari va davolash yo`llari ko`rib chiqilgan. Shuningdek, revmatizmning oldini olish choralari va kasallikning asoratlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Maqola tibbiyot mutaxassislari va sog`liqni saqlash sohasiga qiziquvchi o`quvchilar uchun foydali manba bo`lib xizmat qiladi.

Kalit so`zlar: revmatizm, antitanalar, streptakokk

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о ревматизме, его причинах, клинических признаках и методах лечения. Ревматизм – это воспалительное заболевание, поражающее соединительные ткани, главным образом сердце, суставы и другие органы, и часто возникающее в результате стрептококковой инфекции. В статье рассматриваются основные симптомы болезни, методы диагностики и способы лечения. Также приводятся сведения о мерах профилактики ревматизма и возможных осложнениях заболевания. Статья будет полезным источником информации для медицинских специалистов и всех, кто интересуется вопросами здравоохранения.

Ключевые слова: ревматизм, антитела, стрептококк

Annotation: This article provides detailed information about rheumatism, including its causes, clinical symptoms, and treatment methods. Rheumatism is an

inflammatory disease that primarily affects the connective tissues of the heart, joints, and other organs, and it often develops as a result of a streptococcal infection. The article discusses the main symptoms of the disease, diagnostic methods, and treatment approaches. It also includes information on preventive measures and possible complications of rheumatism. The article serves as a useful resource for medical professionals and readers interested in the field of healthcare.

Key words: antibodies, streptococcus, rheumatism.

Kirish: Revmatizm — yurak, bo'g'imlar, teri va markaziy asab tizimi kabi organlarning biriktiruvchi to'qimalarini zararlovchi yallig'lanishli kasallik. Ko'pincha A guruhi gemolitik streptokokk infeksiyasidan so'ng rivojlanadi va bolalar hamda o'smirlar orasida keng tarqalgan. Revmatizmning o'z vaqtida aniqlanmasligi yoki to'g'ri davolanmasligi yurak faoliyatida jiddiy asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu maqolada revmatizmning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, tashxislash usullari, davolash yo'llari va profilaktik choralari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Muhokama: Revmatizm – bu murakkab va ko'p qirrali kasallik bo'lib, asosan yurak va bo'g'imlarning biriktiruvchi to'qimalarini zararlaydi. Kasallikning rivojlanishida A guruhi gemolitik streptokokk infeksiyasi muhim rol o'ynaydi. Revmatizm ko'pincha bolalar va o'smirlar orasida uchraydi va o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa yoki to'g'ri davolanmasa, yurak klapanlarida jiddiy asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, kasallikni erta aniqlash va samarali davolash muhim ahamiyatga ega. Profilaktik choralarga rioya qilish, jumladan, streptokokk infeksiyalarini o'z vaqtida va to'liq davolash, revmatizm rivojlanish xavfini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida revmatizmni oldini olish va davolash usullarini yanada takomillashtirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur.

Tadqiqot natijalari: Revmatizm ning asosiy sababi streptokokk infeksiyasi bo'lib, uning kelib chiqishi va rivojlanishining ikkinchi asosiy omili tana reaktivligining o'zgarishidir. Revmatizm bilan shikastlangan kasallarning kasallik boshlanishidan oidin angina yoki surunkali tonzillit bilan og'riganligi aniqlangan. Streptokokk

infektsiyasi bilan bog'liqlik bemorlar qonida streptokokk antigenlari va streptokokk antigenlariga qarshi „antitanalar“ (ASL-O, ASG, antidezoksiribonukleaza B)ning katta miqdorda topilishi bilan tasdiqlanadi. Streptokokk virulentligi streptokokk hujayra devoridagi M-oqsilning miokardni shikastlantiruvchi xili, uni revmatizm keltirib chiqaradigan xillaridagina uchraydigan T-oqsil, streptokokk tashqi qobig'ida joylashgan va neytrofillarning fagositar faolligini yo'qotuvchi gialuron kislotasi, endotoksik ta'sir ko'rsatuvchi mukopeptid bolishi bilan bog'liqdir. Streptokokk ekzofermentlari to'qimalarni bevosita shikastlantirishi, masalan, gialuronidaza gialuron kislotasi polimerligini buzishi, streptokinaza yalligianishda ishtirok etadigan kininlar tizimi faolligini oshirishi mumkin. Revmatizm rivojlanishida genetik moyillik (revmatizm bilan ko'pchiligi kasallanadigan oilalar borligi ma'niy) va ijtimoiy sharoitlar (yoki turmush sharoitlari, yetarlicha ovqatlanmaslik) ahamiyatga ega. O'tkir streptokokk infeksiyasini o'tkazgan bemorlarning 0,3-3 % gina revmatizm bilan shikastlanadi. Tanaga streptokokk infeksiyasi kirishiga javoban unda qonda aylanib yurib, o'ta kichik qon aylanish yo'nalishlarida (mikrotsirkulyatsiyada) cho'kib, o'tirib qoluvchi streptokokk antigenlariga qarshi antitanalar ishlanib chiqadi va immunologik birikmalar (streptokokk antigeni+ularga qarshi antitanalar+komplement) paydo bo'ladi.

Yechim va tavsiyalar: Hozirgi davrda revmatizmni davolash 3 bosqichda olib boriladi:

- 1) kasallikning faol davrida kasalxonada davolash;
- 2) kasalxonadan chiqqandan keyin davolashni poliklinikaning kardiorevmatologik xonasida davom ettirish;
- 3) bemorlarni ko'p yillar davomida poliklinikada kasallik qaytalanishining oldini olish uchun davolash va nazorat qilish.

Davolash muolajalari quyidagilardan iborat:

- a) streptokokk infeksiyasiga qarshi kurashish;
- b) faol revmatik jarayonni davolash (immunologik yalligianishni);
- d) immunologik o'zgarishlarni bartaraf qilish.

1. Revmatizmning faol davrida (birlamchi yoki qaytalagan revmatizm) streptokokk infeksiyasini yo‘qotish uchun antibiotiklar, asosan penitsillin va yarim sun’iy penitsillinlar (ampitsillin, oksatsillin, metitsillin va boshqalar) qo‘llanadi. Davolash 2 hafta davomida olib boriladi. Sulfanilamidlar va tetratsiklin guruhidagi antibiotiklarni qo‘llash.

Maqsadga muvofiq emas, chunki bu dorilar bakteriostatik ta’sir ko‘rsatib, streptokokklarning chidamli turlari paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Faol revmatizmni davolashda yana yallig‘lanishga qarshi har xil nosteroid dorilar qo‘llanadi. Bular atsetilsalitsilat kislotasi 1 g dan 3-4 marta (1 kunda 3-4 g) beriladi. Bu dori bemorga foyda bermasa yoki yoqmasa, 0,4 g dan bir kunda 3 marta brufen yoki 0,15 g dan butadion berilishi mumkin. Qo‘shimcha salbiy ta’siri kamroq bo‘lgan voltaren yoki indometatsin (0,05 g dan bir kunda 3 marta) ham berilishi mumkin. Bu dorilarni ovqat yoki sut bilan bir vaqtda ichish kerak. Oshqozon-ichak yara kasalliklari bor bemorlarda bu dorilar qo‘llanilmaydi. Ular o‘rniga reopirin, pirabutol, natriy salitsilat eritmalarini mushak orasiga yuborish mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan dorilar bo‘lmaganda ortofen, xlotazol, mefenamin kislotasi, perklyuzon berish mumkin. Ko‘rsatilgan dorilarni revmatik jarayonning faol davri to‘xtaguncha (1-1,5 oy davomida) beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Y. L. Arslonov, T. A. Nazarov, A. A. Bobomurodov. Ichki kasalliklar. ILM ZIYO - 2013.
3. O‘. Sharopov, F. G‘afforova. Ichki kasalliklar. Yangi asr avlodi 2006.